

**BOLALARNING O‘YIN VA KATTALARNING IJODIY FAOLIYATIDA
FANTAZIYANING AHAMIYATI**

Shukurillayeva Saodatoy

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqola bolalarning o‘yini va kattalarning ijodiy faoliyatida fantaziyaning ahamiyatini o‘rganadi. Unda fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati, uning bolalik davrida shakllanishi, ijodiy faoliyatdagi roli va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘yin va mutolaa jarayonlari orqali tasavvurning rivojlanishi, kattalarning ijodiy faoliyatida fantaziyaning asosiy vosita sifatidagi o‘rni keltiriladi. Maqola fantaziya inson shaxsiy rivojlanishi, ijodkorlik va yangilik yaratishdagi rolini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Fantaziya, tasavvur, bolalarning o‘yini, ijodiy faoliyat, psixologik rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, jamiyat taraqqiyoti.*

Inson tafakkurining eng noyob jihatlaridan biri — bu fantaziya, ya’ni tasavvur qilish qobiliyatidir. Fantaziya bolalikdan boshlab butun hayotimiz davomida bizga hamroh bo‘ladi. Kishi kichikligida uni o‘yinlar orqali namoyon qilsa, ulg‘ayganida ijodiy faoliyatda aks ettiradi. Fantaziya insonning har qanday jarayonda yangi g‘oyalar o‘ylab topishi, noodatiy yechimlar topishi va atrofdagi olamni o‘ziga xos tarzda idrok etishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda nafaqat pedagoglar, balki psixologlar va san’at ahli ham fantaziyaning inson hayotidagi o‘rni haqida alohida ta’kidlashmoqda. Chunki u nafaqat ijodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, balki shaxsning umumiy fikrlash darajasini ham shakllantiradi.

O‘ngning boshqa funksiyalari kabi xayol ham tarixan, avvalo, insonning mehnat faoliyati jarayonida rivojlanib kelgan. Odamlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat berayotgan tayyor mahsulotlardan ko‘proq olishga intilib, tevarak-atrof olamni o‘zgartirishga harakat qilganlar. O‘zgartirish va yaratish jarayoni esa avvaldan tasavvur qilinadigan obrazga tayangan: inson biror narsaga qanday shakl berishini, qanday yo‘l bilan o‘zgarishga erishishini va bu o‘zgarishning qanday natija berishini oldindan xayolda gavdalantirgan. Shu tufayli fantaziya tarixiy taraqqiyotning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib kelgan.

Bolalik davri esa inson hayotidagi eng faol tasavvur jarayoni sodir bo‘ladigan bosqichdir. Bola o‘yinchoqlar, atrof-muhit va o‘zining oddiy harakatlari orqali o‘z olamini kashf etadi. Masalan, oddiy tayoqchani qilich deb tasavvur qilishi, kichik toshchani mashina deb o‘ynashi yoki o‘zi turli xil ertaklar yaratishi orqali bola tasavvurida voqelikning o‘ziga xos modeli shakllanadi. Bu jarayon bolada mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, murakkab vaziyatlarni oson yecha olish qobiliyatini shakllantiradi va hissiy dunyosini boyitadi.

Muayyan ehtiyoj mavjud bo‘lganda, bolada fantaziya orqali paydo bo‘ladigan obrazlar va tasavvurlar uning avvalgi tajribasi va xotira orqali shakllangan tasavvurlarga asoslanadi. Ya’ni bola qanchalik ko‘p o‘qisa, kuzatsa, yangi tajriba orttirsas — uning tasavvuri shunchalik boy bo‘ladi. Shu nuqtada o‘yin jarayoni nafaqat ko‘ngilochar mashg‘ulot, balki bola kelajagi uchun muhim psixologik va intellektual zamin yaratadigan faoliyatga aylanadi.

Shu bilan birga, mutolaaning tasavvurni rivojlantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Badiiy adabiyot asarlarini o‘qish, shuningdek jurnallar va gazetalarda yurtimizdagi qurilishlar, ilmiy kashfiyotlar, texnika sohasidagi yangiliklar va qishloq xo‘jaligidagi novatorlar haqida chop etilgan maqolalarni mutolaa qilish insonning mazmunli, keng va real xayolini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Negaki, bunday manbalar orqali bola ham, kattalar ham o‘z dunyoqarashini boyitadi va yangi tasavvurlar uchun zamin yaratadi.

Katta yoshga kelganimizda esa fantaziya butunlay boshqacha ko‘rinishda — ijodiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Har bir ijodiy kasb egasi, xoh u rassom, yozuvchi, muhandis yoki dizayner bo‘lsin, avvalo tasavvur kuchiga tayanadi. Yangi mahsulotlar, texnologik ixtirolar, san’at asarlari yoki me’moriy loyihalar inson xayolida paydo bo‘lgan dastlabki g‘oyaning shakllangan ko‘rinishidir. Demak, fantaziya faqat bolalarning o‘yinida emas, balki kattalarning professional faoliyatida ham asosiy manba hisoblanadi.

Bugungi tez rivojlanayotgan dunyoda fantaziyasi kuchli insonlar har doim bir qadam oldinda bo‘ladi. Kompaniyalar noodatiy fikrsa ega, ijodiy yondasha oladigan xodimlarni qadrlashadi. Chunki innovatsiya — bu tasavvur va fantaziyaning real mahsulidir. Tadbirkorlikda yangi biznes g‘oyalari, original mahsulotlar yoki marketing strategiyalari aynan inson tasavvurining hosilasidir. Shunday ekan, fantaziya hayotning barcha sohalarida o‘z ahamiyatiga ega.

Fantaziya insonning ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tasavvur qilish jarayoni stressni kamaytiradi, hissiy holatni yumshatadi, odamning ichki dunyosini boyitadi.

Yozuvchi fantastik asar yozayotganda o‘z hislarini nazorat qiladi, rassom esa o‘z tasavvuridagi ranglar orqali kayfiyatini ifoda etadi. Bu jarayon insonning ma’naviy dunyosini boyitadi hamda hayotga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilaydi.

Shuningdek, fantaziya jamiyat taraqqiyotida ham beqiyos o‘ringa ega. Katta ilmiy va texnik kashfiyotlarning deyarli barchasi avval inson xayolida g‘oya sifatida paydo bo‘lgan. Elektr energiyasidan tortib, sun’iy intellekt tizimlarigacha bo‘lgan barcha innovatsiyalar tasavvur va ijodning natijasidir. Fantaziyasi kuchli jamiyat doimo yangilik yaratishga moyil bo‘ladi va taraqqiyotga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bolalarning o‘yinidagi fantaziya va kattalarning ijodiy faoliyatidagi tasavvur — bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlardir. Bola o‘yin orqali o‘z fantaziyasini kuchaytiradi, kattalikka yetganda esa shu fantaziya uni ijodkor, noodatiy fikrlay oladigan shaxsga aylantiradi. Fantaziya hayotimizning har bir bosqichida bizga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan bebaho qobiliyatdir. Shu bois ota-onalar, pedagoglar va jamiyat fantaziyani qo‘llab-quvvatlashi lozim. Zero, fantaziya bor joyda yangilik, ilhom va taraqqiyot bordir.

1. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya. -O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2015.
2. L.S Vygotskiy. Bolalar psixologiyasi. -Pedagogika. Moskva-2001.
- 3.J. Piaget. The Psychology of the Child. -Basic Books. New York -1972.
4. D.B.Elkonin. O‘yinning psixologiyasi -Prosveshcheniye. Moskva-1978.